OLIY TA’LIMDA KASBIY REFLEKSIYA KADRLAR SALOHIYATINI OSHIRISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA

Nishanova Zamira Taskarayevna
O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti professori,
psixologiya fanlari doktori
Badritdinova Madina Baxromovna
NamDPI dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘qituvchining refleksiv tizimini rivojlantirish pedagogik faoliyatda o‘z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi ekanligi va refleksiv tizimsiz o‘qituvchining yuksak mahoratli pedagog sifatida takomillashuvi mumkin emasligi, o‘qituvchining refleksiv tizimini rivojlantirishning samaradorligi haqida fikr yuritilgan. Maqola talabalar, pedagoglar,

psixologlar va pedagogik refleksiya muammosi bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: adekvatlik, mikroijtimoiy, kompleks, ustanovka, taraqqiyot

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq, butun mamlakat miqyosida ta’lim va tarbiya, ilm-fan, kasb-hunar o‘rgatish tizimlarini tubdan isloh qilishga kirishildi. Belgilangan maqsadlar muvaffaqiyatli amalga oshirilib, hozirgi kunda ta’lim sohasida yuksak samaradorliklarga erishilmoqda. Bunda o‘qituvchilar bilan birga keng jamoatchilik, butun xalqimizning fidokorona mehnatini e’tirof etib, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev quyidagi fikrfarni bayon etadi: “Maktab, ta’lim-tarbiya masalasi davlat va jamiyat nazoratida bo‘lishi asosiy qonunimizda belgilab qo‘yilgan. Shu bilan birga, bu keng jamoatchilik, butun halqimizning ishtiroki va qo‘llab-quvvatlashini talab qiladigan umummilliy masaladir”[1].

Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim-tarbiya olishiga bog‘liq. Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko‘rishi zarur. Ana shu oddiy talabdan kelib chiqqan holda, farzandlarimizni mustaqil va keng fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan, ongli yashaydigan komil insonlar etib voyaga yetkazish – ta’lim-tarbiya sohasida fidokorona mehnat qilayotgan o‘qituvchilarning asosiy maqsadi va vazifasi bo‘lishi kerak.

Bu ulkan javobgarlik hissi o‘qituvchilarda pedagogik mahorat qirralarining turli jarayonlarini hozirgi zamon talablari darajasida takomillashtirishni talab etadi. So‘nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar o‘qituvchilarning pedagogik faoliyatida fikrlash hamda analitik qobiliyatlarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlamoqdalar. Bu qobiliyatlar asosini esa, o‘qituvchining kasbiy refieksiyasi tashkil etadi.

Refleksiya (lotincha “reflexio” - orqaga qaytish) - har tomonlama barkamol rivojlangan insonning o‘z xatti - harakatlari va ularning qonuniyatlarni anglashga qaratilgan nazariy faoliyat shaklidir [3]. Inson ma’naviy dunyosining o‘ziga xos yashirin hislatlarini ochib beradigan o‘z-o‘zini bilishga va anglashga qaratilgan faoliyatdir.

Ilk bor refleksiya tushunchasi qadimgi yunon falsafasida yuzaga kelgan va insonning o‘z ongida kechayotgan mulohazalari haqida, o‘zi fikr yuritishi jarayoni, o‘z fikrlari mazmnnini tahlil qilishga e’tiborini jalb qilishni anglatgan [2]. Leybnits konsepsiyasiga muvofiq refleksiya insonning appersepsiyaga (idrokning itison o‘tmishidagi tajribasiga va individual xususiyatlariga bog‘liqligi) qodirlik xususiyati sifatida tilga olinadi [4].

Bugungi zamonaviy falsafada esa refleksiya nazariy va amaliy jihatdan farqlanadi. Birinchisi, inson tomonidan tushuchalarning rivojlanish jarayoni, yagona tushuncha doirasida bir ta’rifdan boshqasiga o‘tish imkoniyatini beradigan metod sifatida, ikkinchisi esa, individual harakat yoki fikrni tushuncha bilan nisbatlash jarayoni. Bunda isbatlash olchovi ustidan nazorat ta’minlanishi kerak.

Hozirgi kunda falsafiy kategoriya sifatida o‘rganilayotgan refleksiya psixologiya, sotsiologiya, sinergetika, mantiq, androgogika, kiberaetika va boshqa ko‘plab murakkab fanlarning tadqiqot ob’yekti sifatida e’tirof etilib tadqiq qilinmoqda. Biz “refleksiya” kategoriyasiga pedagogika va psixologiya nuqtai nazaridan ta’rif beramiz va uning mohiyatini o‘rganishda o‘qituvchilar kasbiy faoliyatidagi o‘rnini tahlil qilishga batafsil to‘xtalamiz.

Psixologiyada refleksiya “sub’yekt tomonidan o‘zining ichki psixik jarayoni va holatrarini bilish, nazorat qilish” mazmunida talqin qilinadi [6]. O‘qituvchining pedagogik faoliyatida, refleksiyaning shaxsga nisbatan ahamiyatini o‘rganishda bu tushunchaning ijtimoiy psixologik nuqtai nazardan ta’rifi mukammal ekanligi e’tirof etiladi, unda refleksiya insonning borliqda boshqa insonlar tomonidan qanday qabul qilinishi va baholanishi sifatida qaraladi [8].

Insonning ijodiy muammolarini hal etishda ro‘y beradigan fikrlashidagi refleksiyani o‘rganib, olimlar uni fikrlovchi sub’yektaing o‘z - o‘zini boshqarish usuli (Yu.N.Kulyutkin, S.Yu.Stepanov va boshqalar), tanqidiy fikrlash omili (IN.Semyonov), nazariy jihatdan fikrlashning yuqori ko‘rsatkichi (A,Z.Zak, V.V.Davidov va boshqalar) sifatida ta’rif berib baholaydilar [1].

I.S.Ladenko refleksiyani intellektual tizimlarning o‘z-o‘zini tashkil qilishidagi ahamiyatini intellektual faoliyatning malaka va ko‘nikmalarini takomillashtirish ehtiyoji hamda nutq, xotira, tasavvurlarning idrok va tashqi shakllari haqida psixologik qarashlarni ishlab chiqish zaruriyati bilan bog‘laydi. U “Refleksiya - ichki tasavvurdan tashqi tasavvurga va aksincha biridan boshqasiga o‘tish, fikrlash jarayonida ushbu jarayonlarning interiorizatsiya (tashqi omillarning ichki omillarga o‘tishi haqidagi fikrlarni shakllantirish asosi. Refleksiya asosida nafaqat psixologik bilimlar, balki xotira, malaka va ko‘nikmalar shakllantiriladi va amalda qo‘llash usullari takomillashtiriladi” deb hisoblaydi [5].

Hozirgi zamonaviy pedagogik ilmiy-tadqiqot ishlarida ko‘plab olimlar refleksiyaning IN.Semyonov tonxonidan taklif qilingan tasnifiga tayanadilar. U refleksiyaning quyidagi turlarini taklif etib sharhlaydi [3]:

1. Intellektual refleksiya: Muammolarni fikrlash asosida ijobiy hal qilishni belgilaydi.

2. Shaxsiy refleksiya: O‘qituvchining nizoli (konfliktlar) pedagogik ziddiyatlardan janjalsiz chiqishni fikran izlanish asosida bartaraf qilishni ta’minlaydi.

3. Kommunikativ refleksiya: Muloqot jaiayonida sheriklarining o‘zaro bir-birlarini tushunib munosabat qflishni ta’minlaydi.

4. Kooperativ refleksiya: Jamoa a’zolarining birgalikdagi o‘zaro muntazam mehnat faoliyatlarini muvofiqlashtirish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat.

N.V.Kuzminaning fikricha, refleksiyaning mazmuni, sherigining ichki dunyosini o‘zaro hamkorlik asosida sub’yektiv qayta yaratishdan iborat bo‘lgan individlar bir - birlarini ko‘zguda kabi aks eitirishi, o‘zaro aks ettirishning o‘ziga xos ikki tomonlama jarayoni, qolaversa, bu ichki dunyoda, o‘z navbatida, birinchi tadqiqotchining ichki dunyosi aks etishidir [8]. Refleksiv qobiliyatlami o‘qituvchi pedagogik faoliyatining zarur tarkibiy qismi sifatida hisoblagan qator mualliflar (A.A.Bizyayeya, V.V.Vetroya, E.N.Pexota, I.A.Stetsenko, L.G.Tatur, A.V.Xristeva va boshqalar) ularni bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogika oliy ta’lim muassasalarida o‘qishi davridayoq shakllantirish zarurligi haqidagi g‘oyalanii ilgari suradilar [9]. A.V.Xristeva refleksiv vaziyatlar mohiyatiga kasbiy faoliyatda ijodiy tizimlar hosil qiluvchi komponent sifatida qaraydi. U bo‘lajak o‘qituvchining refleksiv tizimini shakllantirish va rivojlantirish pedagogik faoliyatda o‘z imkoniyatlarining zarur ijodiy qismi deb biladi va refleksiv tizimsiz o‘qituvchining yuksak mahoratli pedagog sifatida takomillashuvi mumkin emas deb ta’kidlaydi olima [2].

Pedagogik ta’limot g‘oyalariga ko‘ra shaxsda yuksak axloqiy sifatlarning shakllanishi va uning ijtimoiylashuvida mehnat faoliyati alohida o‘rin tutadi. Shunga ko‘ra o‘qituvchi mehnatini tashkil qilish ham o‘qituvchining ana shu sifatga ega bo‘lishiga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.

O‘qituvchi mehnatini tashkil etishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o‘rganish muhim ilmiy psixologik muammo bo‘lib, uni o‘rganish natijasida o‘qituvchilar faoliyatini ma’lum darajada ijobiy tomonga yo‘naltirish, o‘qituvchi mehnatini tashkil etishda ma’lum darajada ilmiy bo‘lishi imkoniyati yaratiladi.

1. O‘qituvchi mehnatini tashkil etish va faoliyatii jtimoiylashtirish o‘ziga xos dolzarblik kasb etadi.

2. O‘qituvchi mehnatini tashkil etish maxsus kasbiy tayyorgarlik negizida yo‘lga qo‘yilishi o‘qituvchi faoliyatini samarali yutuqlarni qo‘lga kiritish imkonini beradi.

3. O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish va ularda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish va mehnat ko‘nikmalarini hosil qilish, fiziologik, psixologik va ijtimoiy og‘ishlarning oldini olish hamda qayta tiklash, salbiy ijtimoiy ta’sirlarga nisbatan immunitetni hosil qilish, ularni psixologik zo‘riqishdan himoyalash, boshqaruv ta’limiga tayyorlash, shuningdek, ijodiy rivojlantirish kabi yo‘nalishlar ijtimoiy-pedagogik faoliyatni tashkil etish maqsadga muvofiq sanaladi.

4. O‘qituvchi mehnatini tashkil etishda ma’naviy-axloqiy va psixologik-irodaviy jihatlarni inobatga olish mazkur jarayonning muvaffaqiyatli kechishini kafolatlaydi.

5. O‘qituvchi mehnatini tashkil etish o‘qituvchilarning fiziologik, jismoniy, ma’naviy jihatdan shakllanishlari muhim ahamiyatga ega.

6. O‘qituvchi mehnatini tashkil etish mazmunida o‘zbek xalqining milliy mentalitetiga xos bo‘lmagan umuminsoniy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ular xarakteriga mos bo‘lishi zarur.

7. O‘qituvchi mehnatini tashkil etish o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlikka erishish maqsadga muvofiq bo‘lib, ularning tarbiyaviy imkoniyatlarini o‘zaro muvofiqlashtirish o‘qituvchilarni yuqori samaradorlikka erishishga xizmat qiladi.

8. O‘qituvchi mehnatini ilmiy tashkil etish zarur:

- o‘z kasbiga boigan munosabati asosida kasbiy ehtiyojini kuchaytiradi;
- kasbiy faoliyatga chinakam qiziqish namunalarini rivojlantiradi;
- pedagogik maborat asoslarini egallashda bir maqsad sari intiluv-chanlikni shakllantiradi;
- o‘z ilmiy mehnati uchun ahamiyatga ega bo‘lgan ijodkorlik sifatlari majmuasining yuzaga kelishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Bo‘lajak kasb ta`limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirish. Monografiya. -Toshkent: FAN, 2004. 130 b.

2. Muslimov N.A., Mullaxmetov R.G. Kasb tanlashga yo‘llash. O‘quv qo‘llanma. -Toshkent: OO‘MTV, 2007. 173 b.

3. Бадритдинова, М. (2019). КОГНИТИВ УСЛУБ БИЛАН БОҒЛИҚ МЕТАУСЛУБЛАРНИНГ РИВОЖЛАНИШИ. Ilmiy axborotnoma.

4. Бадритдинова, М. Б. (2020). Различия между базовой, дидактической и когнитивными структурами личности. Oriental Art and Culture, (II), 158-161.

5. Бадритдинова, М. (2015). ТАЛАБАЛАР ИНТЕЛЛЕКТУАЛ ФАОЛИЯТИНИ ЎРГАНИШГА НИСБАТАН СИСТЕМАЛИ ЁНДАШУВ. Илмий ахборотнома.

6. Turg‘unboyeva, A., Badritdinova, M., G‘aniyeva, N., & Qayumov, B. (2021, May). DESCRIPTION OF THE METHODS OF DIAGNOSING THE COGNITIVE STYLE OF PUPILS IN THE EDUCATIONAL PROCESS. In E-Conference Globe (pp. 306-308).

7. Badritdinova, M. B. (2019). HE DEVELOPMENT OF METAMETHODS ASSOCIATED WITH COGNITIVE METHODS. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 1(6), 483-489.

8. Baxromovna, B. M. (2024). Ta’lim jarayonida qo‘rquvni bartaraf etishga innovatsion yondashuv. *TADQIQOTLAR. UZ*, *49*(3), 13-19.

9. Badriddinova, M. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI O‘SMIRLAR DIQQATINI